

INSONIYAT TARAQQIYOTIDA MUSIQA TARBIYASINING AHAMIYATI

Shahrisabz davlat peadagogika instituti
San'atshunoslik kafedrasida o'qituvchisi
Abdullayev Muhitdin Yusupovich
Tel: +998-91-652-69-75
abdullayevmu952@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, musiqa madaniyati fani rivojlanishi, bugungi kunda milliy madaniyatimizga bo'lgan e'tibor, amalga oshirilayotgan islohotlar, buyuk allomalarimizni musiqa ilmiga qarashlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Al-Farobiy "Musiqa haqida katta kitob" asari

ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В данной статье рассказывается о развитии науки о музыкальной культуре после обретения независимости Узбекистана, внимании, уделяемом сегодня нашей национальной культуре, реализуемых реформах, а также взглядах наших великих ученых на музыкальную науку.

Ключевые слова: Музыка, «Национальная программа подготовки кадров», труд Аль-Фараби «Большая книга о музыке».

THE IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF HUMANITY

Annotation: This article discusses the development of the science of music culture after Uzbekistan gained independence, the attention paid to our national culture today, the reforms being implemented, and the views of our great scholars on music science.

Keywords: Music, "National Program for Personnel Training", Al-Farabi's "Big Book on Music"

Musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Abu Ali Ibn Sino qadimgi yunon faylasuflari hamda Al-Farobiyning musiqa to'g'risidagi ta'limotlarini chuqur o'zlashtirgan holda musiqaning inson ma'naviyatiga bog'liq jihatlariga ham katta e'tibor beradi. Olimning fikricha,

“Musiqqa hayotbaxsh, oliyjanob ahloqiy hususiyatlarini rivojlantiradi, u insonga hizmat qiladi, uning intellektual va ahloqiy qiyofasini shakllantiradi”.

Musiqqa har davrning ijtimoiy - iqtisodiy va ma’naviy – mafkuraviy hayotning muhim va ta’sirchan vositasi bo‘lib kelgan. Ma’naviy barkamol insonni shakllantirishda musiqaning ahamiyatini alohida ta’kidlash joizki, musiqqa asarlarning inson go‘zallik, ulug‘vorlik, ko‘tarinkilik, tushkunlik, g‘amginlik, hazinlik, mayuslik, singari tuyg‘ularni uyg‘otuvchi hususiyatlari mavjud va xuddi mana shu jihatlari orqali inson ma’naviyatga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlarning iste’dodini ro‘yobga chiqarish, ahloqan poklanish, hayotga moslashish, biror kasb hunar egasi sifatida ijtimoiy faollashishiga yordam beradi.

Xalqimiz madaniyati va ma’naviyatini yuksaltirish, xususan o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim – tarbiyasiga e’tibor hamda ularning dunyoqarashlarini kengaytirishda, erkin fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishda milliy musiqaning o‘rni juda katta.

Milliy musiqamiz durdonalari va an’anaviy qo‘shiqlarimiz avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tib, kuylanib, so‘zlash orqali bizgacha yetib kelgan. Mumtoz kuy va qo‘shiqlarimiz, ayniqsa, oddiy xalq tilidan kuylangan o‘lanlar, allalar, lapar va yallalar, aytishuvlar terma qo‘shiqlar shular jumlasidandir. O‘zbek folklorida o‘rganiladigan har bir qo‘shiqni yoki xatti-harakatning ma’nosida xalqimizning azaliy tarixi yotadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, musiqqa sohasida avvalo milliy an’analarimizni, me’rosimizni asrab avaylash va rivojlantirish jarayoni boshlanadi. Binobarin mustaqillik tufayli milliy musiqqa madaniyatimiz, ma’naviy kamolotini shakllantirishiga hizmat qila boshladi.

Musiqqa shunday vositaki, u yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, tinglovchi dunyoqarashini shakllantiradi.

Shaxsni kamol toptirishda musiqqa madaniyatining o‘rni va ahamiyatini ochib berish, birinchidan, insoniylik va uning mohiyati masalasini, ikkinchidan ma’rifatlilik ko‘lamini, uchinchidan ma’naviy kamolotda musiqqa ega bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlash demakdir.

Al-Farobiy o‘zining “Musiqqa haqida katta kitob” asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha bir xil musiqqa insonga huzur-halovat baxsh etadi. Ikkinchi xili esa ehtirolarni qo‘zg‘ab, jo‘shqin qiladi va, uchinchi xil musiqqa borki o‘yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi.

Hozirgi musiqiy ta’lim – tarbiyasi shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqqa me’rosimizni o‘rgatishda musiqqa darslarini va sinfdan tashqari musiqqa tarbiya tizimini ahamiyati katta. Darsni qiziqarli qilish uchun musiqqa ijodkorligi qo‘llaniladi, barcha musiqqa faoliyatlari (xor bo‘lib kuylash, musiqqa savodi, musiqqa tinglash) dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog‘lanib o‘tiladi.

Jamiyatimizning turli jabhalarida bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’rifiy o‘zgarishlar barcha fanlar qatori musiqa darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi zamonaviy talablar qo‘yiladi:

1.Darsda ta’limiy – didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni bilish va ularni amalga oshirish.

2.Darsda ta’limning faol usul va uslublaridan foydalanish.

3.Dars jarayonida xalq pedagogikasi an’analarini, jahon pedagogika va psixologiyasi, san’atimiz buyuk ajdodlarimiz o‘g‘itlari, rivoyatlarimiz, hikmat to‘la hadislarimizdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Eng muhim shart – sharoitlar quyidagilardan iborat:

1.Darsliklar, qo‘llanmalar, dastur – tavsiyanomalar, didaktik va metodik ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish.

2.Sinfda ijobiy psixologik muhit bo‘lishi.

3.O‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish.

Ushbu pedagogik shart – sharoitlarga amal qilib darsning maqsadi va mavzusi, to‘g‘ri tashkil qilinsa dars sifatli va samarali bo‘lish mumkin.

Oliy Majlisning 1997-yil 28-avgustdagi IX – sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” muhim tarixiy, amaliy hujjat bo‘lib ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyoning ilg‘or demokratik davlat darajasiga yetkazish, va yosh kadrlarni yuksak ma’naviy– ahloqiy, yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi.

O‘quvchi shaxsini, uning intilishlarini, qobiliyatini va qiziqishini hisobga olgan holda yangi (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi.

Dastur asosida darsliklar, metodik qo‘llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. Yetti yillik musiqa o‘qitish davrida o‘quvchilarni go‘zallikni his eta oladigan musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa me’rosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo‘yiladi. Yangi dastur asosida musiqa madaniyati darslarini sifatli, pedagogik va metodik jihatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun o‘qituvchi ijodkor, o‘z kasbini va o‘quvchilarni sevuvchi, yaxshi cholg‘uchi, metodikani puxta o‘zlashtirgan pedagogik bo‘lishi kerak. Musiqa ta’limini milliy asosini tarkib topishiga, fortepiano asbobi bilan birgalikda, o‘zbek xalq cholg‘u asboblaridan ham foydalana olishi zarur.

Musiqa o‘qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirish ko‘rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan ham foydalanishi kerak. Musiqa darsida musiqa faoliyatlarini oddiydan – murakkabga o‘tish printsipli asosida o‘zaro mantiqiy bir butunlikka erishish va o‘qitishning rivojlanuvchi ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish zarur.

Boshlang‘ich va o‘rta sinflar uchun ish reja alohida – alohida tuziladi. Bunda o‘quvchilarni yoshi, sinfi, ovoz diapazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati

va yil fasllari, bayramlar, yil, chorak, dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Musiqa darslari asosan 1 haftada 1 soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda choraklarga bo'linib dars soati taqsimlanadi:

I Chorak 9 soat,

II Chorak 7 soat,

III Chorak 10 soat,

IV Chorak 8 soat

Ja'mi 1 yilda 35 soat dars o'tiladi.

Boshlang'ich sinfda dars strukturasi 5 ta faoliyat turidan iborat bo'ladi.

1. Xor bo'lib kuylash.

2. Musiqa savodi.

3. Musiqa tinglash

4. Musiqa xarakteriga mos xarakterlar bajarish.

5. Bolalar cholg'u asboblari musiqaga jo'r bo'lish.

O'rta (V - VII) sinflarda esa dars faoliyati bir muncha kamayadi. Chunki, o'rta sinf o'quvchilari ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Musiqa darsi 4 ta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo'lib kuylash.

2. Musiqa savodi.

3. Musiqa tinglash.

4. Musiqa ijodkorligi

Bunda bolalarning ovoz apparatlari shakllangan musiqiy qobiliyatlari rivojlangan musiqaning tuzilishi, shakli musiqi ifoda vositalari haqida bilimga ega bo'ladilar.

Nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytirib emotsional his - tuyg'ulariga ham faol ta'sir etadi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondoshishi muhim ahamiyat kasb. Darsdagi barcha faoliyatlarni maqsadi va mazmuni, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismini bir - biri bilan uzviy olib borishini talab etadi.

Musiqa darsi boshqa darslarga qaraganda o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarni bilim va malakalarini baxolash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo'shiq kuylash bilan birga, ularni ko'proq fikr bildirish, baxsga tortish va amaliy faoliyatiga ko'proq jalb etish va odilona baxolash lozim bo'lib. Shunday qilib, musiqa darslari, yangi dastur asosida rejalashtirilib, o'quvchilarni milliy musiqamizga mehr – muhabbat va qiziqish uyg'otishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hozirgi zamon ta'lim jarayoni oldida turgan asosiy maqsad o'quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirishgina emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o'rgatishdan iborat. Bu jarayonni maqsadli va samarali kechishini ta'minlashda, o'quvchilarning tafakkur qilish malakalarini, aqliy va axloqiy salohiyatini shakllantirish o'ta muhimdir.

Ta'lim-tarbiya sohasini takomillashtirish bu borada yangi zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy etishning tizimli asoslarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Yo'ladashev "O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Toshkent 1985 yil
2. Tohirjon Ortiqov "Musiqa o'qitish metodikasi" Toshkent "Muharrir" nashriyoti 2010-yil.
3. Qobiljon Usmonov "Musiqa darsligi" "Istiqlol" nashriyoti Toshkent – 2006
4. Turg'unboyev K. Vahobjonov B. Pedagogik texnologiya asoslari. Andijon 2002 y
5. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar) 1-3 kitob, - Toshkent "O'zbekiston" 1996, 1997
6. Ahloq - odobga oid Hadis namunalari. T., "Fan", 1990y.
7. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Musiqa San'atning Pedagogik Shakllanish Jarayonlari." Diversity Research: Journal of Analysis and Trends 2.5 (2024): 58-62.
8. Isomovich, T. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 7(5), 93-99.
9. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "XX ASRDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA TUB BURILISH, YOHUD IJROCHILIK USLUBINI YANGI SHAKLI." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 20.5 (2024): 27-31.
10. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI." Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 7.5 (2024): 93-99.
11. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Historical Pedagogical Content And Characteristics Of Dutor Instrument Performance." Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments 2.5 (2024): 310-316.